




# QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 6923,9 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 97,9 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 6539,9 mlrd.so'mni (97,6 foiz), o'rmon xo'jaligida – 355,4 mlrd.so'mni (100,1 foiz), baliq xo'jaligida – 28,6 mlrd.so'mni (139,1 foiz) tashkil qildi.

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Sayxunobod (100,4 foiz), Xovos (100,3 foiz), Mirzaobod (100,2 foiz) tumanlarida kuzatildi. Sardoba (94,5 foiz), Boyovut (93,7 foiz) tumanlarida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi



Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Sirdaryo va Mirzaobod tumanlariining ulushi 13,9 foizni tashkil etdi va hududlar bo'yicha etakchilik qilmoqda, Sayxunobod tumani mos ravishda 13,3 foiz va Boyovut tumani 12,7 foiz ko'rsatkichlari bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Sardoba (12,0 foiz), Guliston (8,5 foiz) va Xovos (11,9 foiz) tumanlarida qayd etildi.

### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2017 yilning mos davriga nisbatan 97,9 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 97,0 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 98,4 foizni tashkil qildi.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 59,8 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 30,8 foizi – fermer xo'jaliklariga, 9,4 foizi – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi kuzatildi.

## Dehqonchilik

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 3806,5 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 97,0 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 55,0 foizni tashkil qildi.



**Hosilni yig'ib olish.** 2018 yilning yanvar – dekabr oylarida 54,5 ming tonna (104,8 foiz) kartoshka ishlab chiqarildi, 288,6 ming tonna (95,3 foiz) sabzavotlar, 265,0 ming tonna (81,1 foiz) oziqbop poliz, 38,4 ming tonna (87,6 foiz) meva va rezavorlar, 13,7 ming tonna (112,7 foiz) uzum yig'ib olindi. Bundan tashqari 434,2 ming tonnadan ortiq don ekinlari ishlab chiqarildi.


## Chorvachilik



2018 yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2690,4 mlrd, so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 98,4 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 38,9 foizni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 57,1 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar- dekabriga nisbatan -9,3 foizga kam), 350,5 ming tonna sut (10,5 foizga), 145,8 mln.dona tuxum (14,0 foizga), 0,6 ming tonna jun, (-10,5 foiz) ni tashkil qildi.

## Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi




Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 96,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 94,9 foizi, tuxumning 87,0 foizi, juning 90,5 foizi, ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

### Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

2019 yilning 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 432,7 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 152,0 ming boshga, qo'y va echkilar – 333,2 ming boshga, parrandalar – 1921,3 ming boshga etdi.

2017 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 19,5 ming boshga (4,7 foizga) ko'paydi, shu jumladan sigirlar – 19,1 ming boshga (14,3 foizga), qo'y va echkilar – 13,2 ming boshga (4,1 foizga) oshgan, parrandalar – 203,9 ming boshga (11,9 foizga) ko'paydi.

## Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2019 yining 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,1 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,8 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 8,8 foizi fermer xo'jaliklariga, 89,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 4,1 foizi fermer xo'jaliklariga, 78,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 17,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi

Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

• (71) 230-86-25  
• (67) 225-27-02